

**BAXSHICHILIK VA JIROVCHILIK SAN'ATI**

*Bunday maktablarni tashkil etishimizdan asosiy maqsad – tariximizni, madaniyatimizni chuqur o'rganish, o'zligimizni anglash. Baxshichilik – qoraqalpoq elining ulug' an'anasi, uni rivojlantirish uchun hamma sharoitlarni yaratamiz!*

*Shavkat Mirziyoev*

*Asqarov Niyazbek Koshkinbaevich*

*Orazalieva Raziya Romanovna*

*Qoraqalpoq Davlat Universiteti oqituvchilari*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada Prezidentimizning 2019 yil 14 mayda qabul qilingan “Baxshichilik san’atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorning bosh g‘oyasi haqida

**Kalit so‘zlar.** Tarix, baxshichilik va jirovchilik, urf-odat, milliy madaniyat.

Prezidentimizning 2019 yil 14 mayda qabul qilingan “Baxshichilik san’atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori mamlakatimizda xalqimiz madaniyatining hayotbaxsh sarchashmasi bo‘lgan jirov va baxshichilik san’atini yanada rivojlantirish, uning milliy madaniyatimiz va san’atimizdagi o‘rni va ahamiyatini yanada yuksaltirish, yosh avlodni milliy o‘zlikni anglash, Vatanga sadoqat, tarixiy merosga hurmat ruhida tarbiyalashga qaratilganligi bilan muhim ahamiyat kasb etadi.

Ayniqsa, hozirgi globallashuv davrida, tijorat vositasiga aylangan “ommaviy madaniyat”, shou-biznesning salbiy ta’siri tobora kuchayib borayotgan sharoitda folklor san’atiga e’tibor va qiziqish susayib borayotgani, ko‘p joylarda unutilib, himoya va muhofazaga muhtoj bo‘lib qolgan paytda mazkur qaror qanchalik dolzarb ahamiyatga ega ekanligiga yana bir bor amin bo‘lamiz. Shuni ta’kidlash lozimki, xalqimizning milliy o‘zligini, qadimiy tarixi va tilini, hayot tarzi, an’ana va urf-odatlarini o‘zida mujassam etadigan, umumbashariy madaniyatning ajralmas qismi sifatida tan olingan baxshichilik san’ati atoqli baxshi-shoirlarimiz, jirovlarimiz, folklorshunos olimlarimizning fidoyi mehnati, ijodiy tafakkuri bilan asrlardan-asrlarga o‘tib kelmoqda.

Prezident Shavkat Mirziyoyev Nukus shahridagi Opera va baxshichilik maktab-internatini borib ko‘rdi. Ma’lumki, qoraqalpoq elining o‘ziga xos baxshichilik yo‘nalishi bor. Mustaqillik yillarida bu yerda opera ham rivojlandi. O‘zbekiston va Qoraqalpog‘iston xalq baxshilari, xizmat ko‘rsatgan artistlar yetishib chiqdi. Opera va baxshichilik maktab-internati ushbu an’anani davom ettirish, yosh avlodga yetkazishga xizmat qiladi. Mazkur ixtisoslashtirilgan ta’lim maskani o‘tgan oyda ishga tushirildi. Muassasa 150 o‘ringa mo‘ljallangan bo‘lib, unga 9 sinfni bitirgan iqtidorli o‘quvchi yoshlar tanlov asosida qabul qilinadi. Hozirda 30 nafar o‘g‘il-qiz o‘qishni boshladi. Ularga taniqli san’at ustalari va pedagoglar saboq bermoqda.

Bunday maktablarni tashkil etishimizdan asosiy maqsad – tariximizni, madaniyatimizni chuqur o'rganish, o'zligimizni anglash. Baxshichilik – qoraqalpoq

elining ulug' an'anasi, uni rivojlantirish uchun hamma sharoitlarni yaratamiz, – dedi davlatimiz rahbari.

Darhaqiqat, xalq og‘zaki ijodi — xalqning ma’naviy xazinasini. Bu boylikni asrab-avaylash, rivojlantirish avlodlar burchi. Buning uchun, eng avvalo, san’atga, adabiyotga zamin bo‘lgan xalqimizning qadim mifologik tasavvurlarini, baxshichilik va jirov san’atini yaxshi o‘rganish, tadqiq etish lozim. So‘nggi yillarda davlatimiz rahbari tomonidan milliy qadriyatlarimizni asrab-avaylab, uni kelgusi avlodlarga asl holda yetkazishga yuksak darajada e’tibor qaratilmoqda. Davlatimiz rahbari tashabbusi tashkil etilgan “Baxshilar maktabi” baxshichilik san’ati an’analarini o‘rganish va davom ettirish, iste’dodli yoshlarni kashf qilish hamda tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Ilk marta Yurtboshimiz tashabbusi bilan jamoatchilikni o‘zbek va qoraqalpoq jirov va baxshichiligining betakror namunalari bilan tanishtirish, yoshlar orasida milliy folklorga bo‘lgan qiziqishni oshirish, qardosh xalqlar o‘rtasida do‘stlik aloqalarini mustahkamlash, ijodiy aloqalar va madaniy hamkorlik doirasini xalqaro ko‘lamda kengaytirish maqsadida bir necha marta Xalqaro baxshichilik san’ati festivali bo‘lib o‘tmoqda.

Albatta, Yurtboshimiz tashabbusi bilan baxshichilik san’atini keng targ‘ib qilish, rag‘batlantirish maqsadida Xalqaro baxshichilik san’ati festivali tashkil etilgani ulkan tarixiy voqea bo‘ldi. Baxshi va jirov, oqinlarimizga o‘zligini, iste’dod va salohiyatini namoyon etishi uchun keng maydon yaratildi. Xalqimizning asriy orzulari, istak-xohishlari ro‘yobga chiqdi. Xalqaro baxshichilik san’ati festivali o‘tkazilishi xalqimizning qadimiy san’atini asrab-avaylash, o‘rganish, targ‘ib qilish, rivojlantirish hamda mohir ijrochilarni rag‘batlantirishda muhim ahamiyat kasb etdi.

Olimlarning ta’kidlashicha Qoraqalpoq xalqida doston ijrochiligi uch bosqichdan turadi. Birinchisi qoraqalpoq baqchilari, ikkinchisi jirovlar, uchinchisi qissaxonlar. Baqchilar dutor asbobida oshiqlik dostonlarini, jirovlar qobiz aspobi bilar botirlik, qahramonlik dostonlarini, qissoxonlar esa ovoz yordamida barcha dostonlarni ijro etadilar.

Baxshichilik san’ati markaziga baxshichilik san’atining ilmiy-nazariy va amaliy asoslarini chuqur o‘rganish va mustahkamlash; sohada shakllangan ijodiy maktablarning o‘ziga xos ijro uslublari, “Ustoz — shogird” an’analarini qayta tiklash va rivojlantirish; baxshi-shoirlar, folklorshunos olimlar, o‘qituvchi va mutaxassislarining ijodiy va ilmiy faoliyatini qo‘llab-quvvatlash; madaniyat markazlari, bolalar musiqa va san’at maktablari va boshqa ta’lim muassasalari qoshida baxshichilik san’ati to‘garaklarini tashkil etish; baxshi-shoirlar ijodiga keng yo‘l ochib berish, ommaviy bayramlar va madaniy tadbirlarda ularning faol ishtirokini ta’minlash; baxshichilik san’atining sara namunalari to‘plash va fondini yaratish, ularning audio va video variantlarini ko‘paytirish, bu sohani yurtimizda va dunyoda keng targ‘ib etish uchun axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan, televidenie va internet imkoniyatlaridan samarali foydalanish; baxshichilik san’ati yo‘nalishida xalqaro hamkorlikni kuchaytirish, bu borada o‘zaro tajriba almashishni

yo'lga qo'yish, jumladan, turli xalqaro anjumanlar va tanlovlar, kontsertlar va mahorat darslarini tashkil etish asosiy vazifalar etib belgilab berildi.

Xulosa qilib aytganda, mazkur tarixiy qaror yurtimizda noyob madaniy merosimizni o'rganish, uning bebaho an'analarini targ'ib qilish va rivojlantirishga keng sharoit yaratish barobarida, ushbu bitmas-tuganmas, noyob va mangu madaniy meros namunalari avlodlardan-avlodlarga o'tib, yanada sayqal topishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

#### **Adabiyotlar**

1. Qalli Ayımbetov "Xalıq danalıǵı"
2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. T, 2017
3. Mirziyoyev Sh.M.Erkin va farovon, Demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatasining qo'shma majlisidagi nutq. T., 2017.
4. Mirziyoyev Sh.M. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasi. (elektron versiyasi).